



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASI

## IJRO ETUVCHI APPARATI

100017, Toshkent sh., Sharof Rashidov ko'chasi, 16, Tel.: (+998 71) 202-11-40  
[www.pfru.uz](http://www.pfru.uz), el.pochta: [pension\\_uz@pfca.mf.uz](mailto:pension_uz@pfca.mf.uz)

2022 yil. «31» oktabr

**01-02-30-03-32/188-son**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lif  
vaziri**

**A. Toshqulovga**

**Hurmatli Abduqodir Hamidovich !**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldag'i 30-sun Qarori bilan tasdiqlangan "Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizomda Pensiya jamg'armasi pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilishi belgilangan.

Bugungi kunda Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan **4,3 mln.nafar** pensiya va nafaqalar hamda **2,4 mln. nafardan** ortiq kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam to'lovlari amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, bugungi kunda **jamiyatimizning har bir jabhasida islohotlar** amalga oshirilayotgan bo'lib, o'z navbatida pensiya ta'minoti tizimida ham fuqarolar bilan bevosa uchrashgan holda ularning **muammolarini o'rganish** hamda ularni yechimi bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Bunda, Pensiya jamg'armasi tomonidan **davlat tashkilotlari, nodavlat uyushmalar va xorijiy ekspertlar bilan yaqin hamkorlik o'rnatilgan**. Mazkur amalga oshirilayotgan ishlarning mantiqiy davomi sifatida pensiya ta'minoti tizimini isloh qilishda oliy ta'lif muassasalari **talabalari, ilmiy izlanuvchilari va olimlar** bilan ikki tomonlama manfaatdor xamkorlikni **o'rnatish** maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Jumladan, Pensiya jamg'armasi tomonidan joriy yilning noyabr-dekabr oylarida joylarda bevosa fuqarolar bilan uchrashuvlar, anketa so'rovlari va monitoringlarni o'tkazish hamda ma'lumotlarni tahlil qilgan

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: IK11622407  
holda takliflar tayyorlash hamda kelgusidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olish  
rejalashtirilgan.

Yuqoridagilarga muvofiq Sizdan mazkur rejalahtirilgan tadbirlarda Oliy  
o‘quv yurtlarining **talabalari** va **ilmiy izlanuvchilarini ko‘ngilli (volontyor)**  
**sifatida ishtirok etish masalasini ko‘rib chiqishingizni so‘raymiz.**

**Hurmat bilan,**

**Ijro etuvchi direktor**



**A.Xaydarov**